XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-sentabr VI-90-95-8-111-K/24 Denov tumani

Denov tumanidagi nomsiz ko‘chalarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2023-yil 4-avgustdagi 01-06/141-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2023-yil 20-sentabrdagi 01-14/192-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari Denov tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman komissiyasining 2023-yil 4-avgustdagi 01-06/141-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2023-yil 20-sentabrdagi 01-14/192-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasi ma’qullansin.

2. Tumandagi nomsiz ko‘chalar nomlari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo‘limi (U.Aliqulov), tuman qurilish bo‘limi (A.Elmurodov) va davlat xizmatlari markazi (O.Xolmirzayev) birgalikda nomsiz ko‘chalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4.Davlat kadastrlar palatasining Denov filiali rahbari (T.Ismoilov) hududlardagi nomsiz ko‘chalar nomlarini yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tumandagi nomsiz ko‘chalar ro‘yxati Kengash qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

6. Ushbu qarorni tuman hokimligi Axborot xizmati (F.To‘rayeva) tuman hokimligining ijtimoiy saytida va “Chag‘oniyon” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari, tuman komissiyasi raisining o‘rinbosari F.Rasulov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



ABROROV ILXOM IBRAXIMOVICH

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2024-yil 26-sentabrdagi
VI-90-95-8-111-K/24 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi tomonidan ekspertiza berilgan Denov tumanidagi mavjud nomsiz ko‘chalarni ro‘yxati

T.R	Geogtafik obyektni turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
Ko‘chalar					
1	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Fayizli xonadon-1 tor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Fayizli xonadon-1 berk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Fayizli xonadon-2 berk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Maftunkor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Maftunkor-2 berk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Nurlidiyor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Nurlidiyor-1 berk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Nurlidiyor-2 berk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Nurlidiyor-3 berk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Nurota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Nurota-1 berk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Ziyokor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13	**Ko‘cha**	Chorgul mfy	Nomlanmagan	Ziyokor-1 tor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.